

“Men O‘zbekistonlikman”

Mashg‘ulot maqsadi

TA'LIMIY	O'quvchilarning Vatan, O'zbekiston va o'zbekistonlik ekanliklari haqidagi tushunchalarini mustahkamlash; Vatan haqidagi fikr va tuyg'ularini hikoya, she'r yoki qisqa jumlarlar orqali ifodalashga o'rgatish.
TARBIYAVIY	O'zbekistonlik ekanidan faxrlanish, Vatanga mehr va sadoqat, o'z yurti hamda xalqiga hurmat tuyg'ularini shakllantirish.
RIVOJLANTIRUVCHI	Og'zaki va yozma nutq, ijodiy fikrlash, xotira, ifodali nutq, tinglash va o'z fikrini boshqalarga yetkazish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Eslatma: Bu - 4 haftalik siklning yakuniy mashg'uloti. Avvalgi 3 haftada o'rganilgan bilim va tuyg'ularni birlashtirish, mustahkamlash va ijodiy ifodalashga qaratilgan.

Kutilayotgan natijalar

- O'z fikri va tuyg'ularini aniq ifodalash.
- Tinglash, muloqot qilish va fikr almashish.
- Ijodiy fikrlash va o'z g'oyasini ifodalash.
- O'zbekistonlik ekanini anglash va bundan faxrlanish.
- Vatanga mehr va hurmatni amalda namoyon etish.
- Mustaqil xulosa chiqarish va o'z fikrini taqdim etish.

Mashg‘ulot ishlanmasi

O'QITUVCHI: Salomlashadi.

O'QITUVCHI: -Assalomu alaykum, bolajonlar! Bugungi mashg'ulotimiz maxsus - bir oylik sayohatimizning yakuni! Keling, kichik "Faxrlanish to'pi" o'yin bilan boshlaymiz: men qo'limda to'p (yoki qog'oz to'pcha) ushlab turibman. Kimga to'p tegsa, tezda "Men O'zbekistonlikman, chunki ..." jumlasini bitta so'z bilan tugatadi.

O'QITUVCHI: To'pni 6–8 nafar o'quvchiga tez-tez uzatadi (yoki ismlarni tezkor chaqiradi).

O'QUVCHILAR: Navbat bilan tez javob berishadi (masalan: "...bayrog'imni yaxshi ko'raman", "...ona tilim bor", "...oilam shu yerda").

O'QITUVCHI: - Qanday chiroyli, samimiy javoblar bo'ldi! Ana shu his-tuyg'ularni bugun yanada chuqurroq ochib beramiz.

Eslatma: *To'p bo'lmasa, o'qituvchi navbatma-navbat ismlarni chaqirib borishi ham yetarli. Maqsad - tezkor, o'ylanmasdan chiqadigan samimiy javoblar orqali mashg'ulotga hissiy tayyorgarlikni oshirish.*



5 daqiqa

| O'TGAN MAVZULARNI ESLASH

O'QITUVCHI: -Keling, o'tgan uch haftada nimalarni o'rgandik, birga eslaymiz: "Yagona Vatan", "Vatan qayerdan boshlanadi?", "Oila biz uchun nima?", "Vatanimizning qanday go'zal joylarini bilasiz?"

O'QUVCHILAR: Savollarga navbat bilan javob berib, o'tgan uch haftada o'rganganlarini eslaydilar.



5 daqiqa

| MAVZUGA KIRISH (Aqliy hujum)

O'QITUVCHI: Doskaga "MEN O'ZBEKISTONLIKMAN" yozuvini va O'zbekiston xaritasi yoki bayrog'i tasvirini chiqaradi.

O'QITUVCHI: -Bu gap siz uchun nimani anglatadi? O'zbekiston so'zi siz uchun nimani anglatadi? O'zbekistonlik qanday bo'lishi kerak, deb o'ylaysiz?

O'QUVCHILAR: Savollarga o'z fikrlari bilan javob beradilar.

 **7 daqiqa** | **NAMUNA VA MUHOKAMA** (Ifodali o'qish, suhbat)

O'QITUVCHI: Vatan haqidagi “Men nechun sevaman O'zbekistonni” she'rini ifodali o'qib beradi:

MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI

*Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Tuproq'in ko'zimga aylab to'tiyo.
Nechun vatan, deya yeru osmonin,
Muqaddas atayman, atayman tanho.
Aslida dunyoda tanho nima bor?
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku, butun Osiyo.
Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Bog'larin jannat, deb ko'z-ko'z etaman.
Nechun ardoqlarkan tuprog'ini men,
O'paman, tuprog'ing bebaho, Vatan!
Aslida tuproqni odil tabiat,
Taqsim aylagan-ku, yer yuziga teng
Nechun bu tuproq, deb yig'ladi Furqat,*

*O, Qashqar tuprog'i, qashshoqmiding
sen?
Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Sababini aytgin, desalar menga.
Shoirona, go'zal so'zlardan oldin,
Men ta'zim qilaman ona xalqimga:
Xalqim, tarix hukmi seni agarda,
Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,
Mehrimga bermasdim o'sha muzlarga?
Vatanlar, Vatanlar, mayli, gullasin,
Bog' unsin mangu muzda ham, ammo,
Yurtim, seni faqat boyliklaring chun
Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!*

O'QITUVCHI: -Endi sizga savol beraman, o'ylab javob bering. Vatanni sevish faqat so'z bilan ifodalanadimi, yoki yaxshi ishlar bilan ham namoyon bo'ladimi?

O'QUVCHILAR: She'rni tinglaydilar, so'ngra savol yuzasidan o'z fikrini bildiradi.

 **12 daqiqa** | **IJODIY TOPSHIRIQ** (Individual ijodiy ish)

O'QITUVCHI: “Yaxshilik daraxti” rasmini chizing. Uning har bir bargiga siz amalga oshirishingiz mumkin bo'lgan yaxshi ishlarni yozing. Qaysi variantni tanlashingiz muhim emas - muhimi, o'z yurak so'zingizni aytishingiz kerak.

O'QUVCHILAR: O'zi tanlagan variantni mustaqil bajaradi.

8 daqiqa | IJODIY MINBAR

O'QITUVCHI: -Endi navbat bilan chiqib, o'z ishingizni taqdim eting. Har bir taqdimotdan so'ng sinfdoshingizning qaysi fikri yoqqani haqida fikr bildiring.

O'QUVCHILAR: O'z ishlarini taqdim etadilar. Har bir taqdimotdan so'ng bir nafar sinfdosh: "Menga uning ... haqidagi fikri yoqdi", deb o'z fikrini bildiradi.

3 daqiqa | REFLEKSIYA (*"Vatan yuragi"*)

O'QITUVCHI: Har bir o'quvchiga yurakcha shaklidagi kichik kartochka tarqatadi.

O'QITUVCHI: Kartochkadagi jummalardan birini tanlang va davom ettiring: "Men O'zbekistonlik ekanimdan faxrlanaman, chunki ...",

"Men Vatanimni sevaman, chunki ...",

"Men Vatanim uchun ..."

O'QUVCHILAR: Kartochkadagi jummalardan birini tanlab, o'z so'zi bilan davom ettiradi. Kartochkalar doskaga "Bizning Vatanimiz" nomli umumiy kompozitsiya shaklida joylashtiriladi.

2 daqiqa | YAKUN (*Umumlashtirish*)

O'QITUVCHI: Keling, mashg'ulotimizni faxr bilan yakunlaymiz: Men O'zbekistonlikman, chunki

O'QUVCHILAR: Barcha o'quvchilar birgalikda: "Men O'zbekistonlikman! Vatanimni sevaman va asrayman!" deydilar.

Mashg'ulotning yakuniy g'oyasi (4 haftaning umumiy zanjiri)

Yagona Vatan



Vatan oiladan boshlanadi



Vatanimizning go'zal joylari



Men O'zbekistonlikman



Men Vatanim uchun yaxshi ish qilaman